

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

Journal of Culture and Art

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-1>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

NURTAYEV Urinbay Nishanbekovich*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti**p.f.n dotsent*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10551307>

RANGTASVIRDA GRIZAYL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA NATYURMORTNI TASVIRLASHNING ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda grizayl texnikasida ishlashning maqsad va vazifalari, ishlash bosqichlari, chet el va o'zbek rassomlari ijodiy ishlari tahlili, uslublari, metodik bosqichma bosqich ishlash batafsil yoritilgan, tasviriy san'at darslarida grizayl texnikasida ishlashning, o'qitishning pedagogik mahorati kabi masalalar o'z aksini topgan. Bundan asosiy maqsad tasviriy san'at asarlarini ishlashdan oldin tus jihatdan naturani ko'rish, his etish va ishlashni o'rgatishdir. Bu esa talabani Tasviriy san'at fanini mukammal o'zlashtirishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Grizayl, guash, uslub, akvarel, kompozitsiya, axromatik, kompozitsiya, palitra, rang, janr, garmoniya, natyurmort, to'yinganlik, bo'yoq, obraz, element, monumentalist, suujet, refleks, yorug'lik, ritm, yorug' soya, rassom, forma, chiziq, kartina, monumental, statik, vertikal va gorizonta, fon, relef, kontrast, grafika, format, dinamika.

ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗОБРАЖЕНИЯ НАТЮРМОРТА В ТЕХНИКЕ ГРИЗАЙЛЬ

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья предназначена для студентов и преподавателей направления «Изобразительное искусство и инженерная графика». В данной статье освещаются такие актуальные виды изобразительного искусства, как рисунок и живопись. Подробно освещены анализ работ, методы, методическая поэтапная работа, такие вопросы, как работа в технике гризайль, педагогическое мастерство преподавания отражаются на занятиях изобразительным искусством. Даются ценные научно-методические рекомендации организации уроков по изобразительному искусству и приобретение навыков по выполнению композиций. Основная цель – научить видеть, чувствовать и работать с природой в цвете перед созданием произведений изобразительного искусства. Это поможет студенту освоить изобразительное искусство.

Ключевые слова: Гризайль, гуашь, стиль, акварель, композиция, палитра, цветовая окраска, жанр, натюрморт, насыщенная краска, изображение, элемент, монументалист, сюжет, рефлекс, свет, ритм, форма, свет, линия, характер, абстрактный, текстура, живопись, монументальный, статический, вертикальная и горизонтальная живопись, фон, рельеф, контраст, графика, великолепный, декоративный, формат, динамика.

FUNDAMENTALS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DEPICTING STILL LIFE USING THE GRISAILLE TECHNIQUE

ANNOTATION

This scientific article is intended for students and teachers of the field of Fine Arts and Engineering Graphics. This article highlights such current types of fine art as drawing and painting. The analysis of work, methods, methodological step-by-step work, issues such as working in the grisaille technique, and pedagogical skills are covered in detail. Teaching is reflected in art classes. Valuable scientific and methodological recommendations are given for organizing lessons in fine arts and acquiring skills in performing compositions. The main goal is to teach how to see, feel and work with nature in color before creating works of fine art. This will help the student master the fine arts.

Keywords: grizayl, self-portrait, style, watercolor, composition, aromatics, mastic, palette, color, genre, harmonica, stained glass, baguette, still life, saturated paint, image, element, monumentalist, plot, reflex, light, rhythm, shadow artist, shape, light, line, character, abstract, texture, painting, monumental, bust, static, plastic, vertical and horizontal painting on a bench, background, relief, contrast, diagonal, graphics, magnificent, decorative, format, dynamics, landscape.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash borasida tasviriy san'at va muxandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarni rangtasvir bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis bo'lmog'i, shuningdek zamonaviy rangtasvir jarayoni yo'nalishlarini yaxshi anglab tushinishi, o'tmish madaniy merosimizga esa to'g'ri baho bera olishi, rangtasvir sohasini chuqur bilishi bilan birga turli badiiy materiallar vositasida nazariy va amaliy ishlarni bajarishni mukammal egallagan bo'lishi lozimdir [3, B.5].



O'quv natyurmorti grizayl texnikasida ishlashda faqat bir xil (axromatik) rangning och to'q tulari imkoniyatlaridan foydalanib ishlanadi.(1-rasm) Lekin bu texnikaning ranglarni tasvirlashdagi imkoniyati juda katta. Inson ko'zi oqdan to qora ranggacha bo'lgan 300-400 xil darajadagi tularni farqlash qobiliyatiga ega. Rassomlarda bu qobiliyatni namoyish qilish uchun fazoviy bo'shliqning tumanli ko'rinishlari, yorug'lik va hajmni tasvirlashda yetarli imkoniyatlar mavjud. Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida taxsil

olayotgan talabalarda rangtasvir mashg'ulotlardagi buyumlarning shaklini tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida bajariladigan grizaylda ishlash vazifasi rangtasvirni o'rganishning boshlang'ich bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi [3, B.5].

Tasvirlashning asosiy vositalaridan biri shakl deyish bilan birga beixtiyor rang ham eslanadi. Lekin shunday chambarchas bog'liqligiga qaramay psixologik jihatdan ular bir-biriga qarama-qarshi hamdir. Shakl va rang alohida-alohida qabul qilinadi; yosh jihatdan farqi bo'lgan va har xil ruhiy holatdagi kishilar shakl va rangdan har xil ta'sirlanadilar va uni turlicha qadrlaydilar.

Insonlardagi bu xususiyatlarni “aql idrokka asoslangan” va “his hayajonga asoslangan” ikki tizimga bo‘lish mumkin. Bulardan birinchisi shaklni ko‘proq qadrlaydi, tez ilg‘aydi, ta’sirlanadi, ikkinchisi rangni yaxshi qabul qiladi. Agar keksa kishilar va yoshlarni, erkaklar va ayollarni, “klassik” va “romantiklar”ni o‘zaro solishtiradigan bo‘lsak, ulardan birinchilari shakl tarafdorlari, keyingilari rangni xush ko‘rishlarini payqab olish qiyin emas. Rangtasvirchi rassomlar rangdan ko‘ra shaklga ko‘p e’tibor beradigan rassomlarga ajratish mumkin [2, B.24].

Psixologik jihatdan farqlanishlariga qaramay, rangtasvirda rang va shakl bir biridan ajratib bo‘lmaydigan birlikni tashkil qiladi. Rangtasvirda rang va shakl bir maqsad sari yo‘naltirilsa ular birgalikda kuchliroq ta’sir qiladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak: rang bu rangtasvirdagi shaklni chiqaradi. Realistik rangtasvirda bu ikki tushunchani ajratib bo‘lmaydi. Talabalar o‘quv mashg‘ulotlarida ranglar nisbatini yaxshi ifodalay olishlari, shu bilan birgalikda buyumlardagi shakl va hajm munosabatlarini ham esdan chiqarimasliklari zarur [4, B.12].

Bu vazifani bajarish esa oson ish emas. Talabalarda ko‘p uchraydigan oddiy xato bu ranglarga berilib ketib, hajmni tuslar bilan berishga e’tibor qilishmaydi. Ular tus rangtasvirning ajralmas qismi ekanligini esdan chiqarib qo‘yishadi. (2-rasm) Natijada pala-partish rang surtmalari natijasida buyumlarni ishonarli tarzda ifodalash uchun zarur bo‘lgan tasvirdagi hajm, perspektiva, fazoviy bo‘shliq ko‘rinishlarining yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tasvirni rangda boshlashga o‘tishdan oldin naturani grizayl texnikasida tushirish jarayoni bilan tanishish katta ahamiyatga ega [6, B.149].

Bu texnikada amaliy mashg‘ulotlar jarayonida, talabalar uchun buyum hajmini tus nisbatlari asosida ifodalash kabi oddiyroq vazifalar beriladi. Bir xil rangdagi rangtasvir bajarish uchun buyum shakli bo‘yicha kerakli tuslar izchilligidagi bo‘yoqlarni kerakli ochlik yoki to‘qlikda qo‘yish natijasida erishish mumkin. Vazifa to‘q ranglardan och rangga qarab bajarilishi talab etiladi. Naturadan grizaylda rangtasvir ishlash jarayonida tekislikda ochdan to‘qqacha o‘tish tuslanishlari shunday bo‘lish kerakki, naturadagi eng to‘q joy tasvirda ham eng to‘q, naturadagi eng och joy tasvirda ham eng och joy bo‘lishi, qolgan oraliqdagi tuslarning qanchalik kuchli yoki kuchsizligi naturada qanday bo‘lsa, tasvirda ham shunday bo‘lib tomoshabin qabul qilishi bilan mutanosib bo‘lishi kerak [5, B.108].



Yorug'-soya nisbatlarini to'g'ri olib borish uchun, buyumdagi bir-biriga va fonga nisbatan yoritilganlik xususiyatlarini aniqlab, naturaga mutanosib tarzda tasvirlash kerak bo'ladi. Bu texnikada vazifalar bajarish jarayonida talabalardagi tasvirlanayotgan buyumlarning hajmini ko'rish va to'g'ri ifodalash ko'nikmalari oshib boradi.

Grizayl akvarelda, guashda, moybo'yoqda ishlash metodikasini egallashning boshlang'ich bosqichlarida, tasvirlash vositalarining tarkibi va o'ziga xosligini o'rganishda, oddiy mashqlardan murakkab vazifalarni bajarish mashg'ulotlariga o'tish uchun juda qulay.

Birinchi kursda, akvarelda rangtasvir ishlashning ilk bosqichida mo'yqalamda tushlash mashqlari bajarishga ko'proq ahamiyat berish kerak bo'ladi. Akvarel texnikasida tus munosabatlarini topishni yetarli darajada o'zlashtirgan talabalar keyingi mashg'ulotlarda berilgan vazifalarni qiynalmasdan bajarishadi. "Shakl chiziqlarini takomillashtirmasdan, bo'shliqdagi fazoviy ketma-ketliklar izchilligining mukammal tasvirini ko'rsata olmasdan turib, na rangni, na yorug'likni jonli ifodalash qiyin" deb ta'kidlaydi ingliz san'atshunosi Jon Raskin [7, B.23].

Ikkinchi kursda talabalar boshqa muammo bilan duch kelishadi. Bu akvarel texnikasidan moybo'yoq texnikasiga o'tish bosqichi bo'lib, vazifaning murakkabligi shundaki, ular tarkibi, xususiyati va texnikasi umuman boshqa bo'lgan tasvirlash vositasida ishlashga o'tishadi. Shuning uchun guash bo'yog'i xususiyatlari bilan tanishish uchun ham boshlang'ich mashg'ulotni aynan grizayl texnikasida boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchi kursda guashdan moybo'yoq texnikasiga o'tish munosabati bilan yana bir xuddi shunday muammoga duch kelishadi. Pastki kurslarda talabalar faqat natyurmort ishlashgan bo'lsa (3-rasm), endi ulardan inson bosh tasviri (portret), keyinchalik esa butun gavda tasvirlarini ishlashga to'g'ri keladi.

Inson qiyofasi rangtasvirini ishlashni o'rganish jarayonini bir necha bir - biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi portretni grizayl texnikasida bajarish.



Yuqorida aytilganlar rangtasvirni o'rganishning boshlang'ich bosqichida grizayl texnikasida boshlashning ahamiyati katta ekanligini yana bir bor ta'kidaydi.

Bu texnikaning faqatgina o'quv vazifalarini bajarishdagi ahamiyati kuchli ekan degan xulosaga kelish kerak emas. Bir xil rangda bajarilgan rangtasvirlar ham badiiy asarlar darajasigacha ko'tarilishi mumkin. Masalan, rus rassomi N. Kupriyanovning "Zinapoyada" asari faqat qora akvarelda bajarilgan. Uning syujeti oddiy: kerosin chiroq ushlagan ayol eshikni ochib qorong'i zinapoyaga chiqqan payti [2, B.65].

Undagi asosiy mohirona tasvirlangan vosita bu chiroq shishasi yaqinidagi yorqin nur sochib turgan, zinapoya va devorni lipillab yoritib silab o'tayotgan, ayolning gavdasining ko'p qismini qorong'ilikda qoldirib uning yuzi va ko'kragini yoritib turgan yorug'lik tasviri bo'lib, bu yerda hech qanday aniq chiziqlar bilan ajratilgan buyumlar va uni o'rab turgan qorong'i bo'shliqdagi yorug'lik va soya chegaralari yo'q, bu suratda oqlik va qoralik suratdagi buyumlarning oddiy tasviri, undagi ranglarning aksi emas. Bu qorong'ulikka kirib undagi holatni o'zgartirib yuborayotgan yorug'likning harakatiga tegishli holat. Rassom o'zining asarini barcha elementlar kartinadagi badiiy fikrni ochib berishga qaratilgan murakkab tizim, bir butun holatda tasavvur qiladi [8, B.229].

Agar bo'lajak tasviriy san'at o'quvchisi, yosh rassom avvalo tus va hajm jihatlarini ilg'ashni o'rganishsa hamda qog'oz yoki matoda ifodalay olishsa, ularning ishlari yorqin, qiziqarli va chuqur ma'nodor chiqadi. Misol keltirilgan rassom N. Kupriyanov ishidan ham ko'rinib turibdi-ki, grizayl texnikasi o'ziga xos bir jozibaga ega bo'lib [3, B.79], ba'zan bu bir xil rangda ishlangan rasmlarda ranglarning nozik farqlari va ularning uyg'unligi shunchalik aniq bo'ladi-ki, natijada unda har xil ranglar tuyg'usini his qilish mumkin. Bundan tashqari grizayl - bu asarni o'zi hohlagan ranglar uyg'unligida tasavvur qilish va fantaziya qilishga imkon beradigan rangtasvir turidir. Umuman olganda shunday xulosaga kelish mumkinki grizayl texnikasi talabalarning rangtasvirni o'rganishining boshlang'ich bosqichida ham, tajribali rassomlar obrazli kartinalar yaratishida ham katta ahamiyatga ega.

Grizaylda ishlash texnikasi o'quv mashg'ulotlar jarayonida grizaylda ishlashga doir bir necha vazifalar ko'rib chiqiladi. (4-rasm) Bu vazifalarga shakl qurilishi bilan tusning o'zaro bog'liqligi ham kiradi. Talaba bir xil ranglarda ishlashni boshlashidan oldin shaklni rang dog'lari yordamida qurish uchun rang surtmalarini kerakli joyga qanday qo'yish, buyumning shakl va hajm jihatdan qanday qurilganligi haqida yetarli tushunchalarga ega bo'lishi kerak.



Grizayl texnikasida buyum sirlari, shakllarining ro'paradan (fas), yondan, ustdan va ko'ndalang ko'rinishlarini tahlil qilish qulayroq kechadi. Bu mashg'ulotlar jarayonining boshlanishida faqat akvarelda emas, tempera, moybo'yoq, akril kabi bo'yoqlarida ham ishlashni tavsiya qilish mumkin. Bu bo'yoqlarning xususiyatlari bosqichma-bosqich batafsil mayda bo'laklarigacha ishlab borish va buzilgan joylarni ustidan to'g'rilash imkonini beradi.

Tuslash grizaylda ishlashdagi asosiy vazifa hisoblanadi. Bu yerda biz tuslarning och-to'qlik darajasidan foydalangan holda tuslar ko'lami ketma-ketligini qurishni o'rganishimiz mumkin. Grizayl texnikasi mavjud bo'yoqlardan foydalangan holda qayd qilingan tus darajasini yaratish imkonini beradi. Biz 5-7-9 xil tus darajasini topishni o'rganamiz. Bir necha bosqichlarda tasvirni tusda ifodalashni ko'rib chiqamiz.

Bundan tashqari mo'yqalamlarda bir xil bo'yoq bilan ishlar ekanmiz, hajmni har xil och-to'qlikdagi rang surtmalari yordamida qurish bilan rangtasvirda tuslarning ahamiyatini tushunib boramiz. Bu usulda amaliy ishlar bajarib, tuslar bilan ishlash rassom uchun rangtasvirni anglab yetish imkonini beradi.


Tuslar ko'lami - bu yorug'lik, yarim soya, soyalar, kuzatilayotgan naturadagi mutanosib tuslarning och-to'qlik darajalari. Tuslar ko'lamini yaratishda kuzatilayotgan ko'rinishni haqqoniy ifodalash uchun zarur bo'lgan badiiy tasvirlash vositalari: qalam, ko'mir, sangina, sous, retush va boshqa bo'yoq turlari (akvarel, guash, akril bo'yog'i, moybo'yoqlar^{ning} naturadagiga nisbatan och-to'qlik darajasi kamroq bo'ladi [1, B.34].

Tusning och-to'qligi - yorug'lik kuchi, yoritilish darajasi, buyumlarning shaxsiy ranglari, kuzatuvchidan qanchalik uzoqda joylashganligiga bog'liq.

Qog'ozning oq yuzasi va rangning eng ochdan to eng to'qqacha bo'lgan tuslaridan foydalanib rassom tasvirlanayotgan buyumning nafaqat shakli balki hajmi, yorug'-soyasi, fazoda joylashishi va har bir materialning o'zigaxos xususiyatlarini ifodalashi mumkin.

Grizaylda rangning ahamiyati yo'q, unda buyumning faqat tusi hisobga olinadi. Biz grizayl ishlashning bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich. Birinchi bosqichda albatta komponovkadan boshlanadi, boshlang'ich eskizda komponovkaning vertikal, gorizontal, kvadrat kabi har xil variantlarini bajarib ko'rish mumkin. Qachonki eskizda kompozitsiya haqida bir to'xtamga kelgach, asosiy formatda ishlashga o'tish mumkin. Asosiy formatda qo'yilgan natyurmortdagi buyumlarning umumiy ko'rinishi belgilanib, keyin alohida buyumlar topilgan katta yuzada joylashtirib chiqiladi. Bunda har bir buyumning yonidagi jismlarga nisbati, ulardagi burchak qiyaliklari, doira yoki oval shakllarinrning o'zaro nisbatlari sinchiklab o'rganib chiqiladi. (5-rasm)



Ikkinchi bosqich. Perspektivadagi asosiy tekisliklar shuningdek buyumlar joylashgan tekislikni belgilanadi. Maydalab ishlamagan holda har bir buyumning xarakterli xususiyatlarni, joylashgan oʻrni, barcha buyumlarning oʻzaro nisbatlarini aniqlashtiriladi.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda ranglar yechimiga ishlov berib boriladi. Natyurmortning eng toʻq va eng och qismlarini aniqlashtiriladi. Natyurmortning qanday yoritilganligiga eʼtibor berish juda zarur. Katta yuzadagi umumiy yorugʻ va soya joylarni topib borilib, avval soya qismlarini ishlov beriladi. Yorugʻ va soyani ishlash bilan buyumlar hajmini berish mumkin. Ranglar bilan ishlashda rangni yaxlit berishga harakat qiling.

Toʻrtinchi bosqich. Ishni katta-katta ranglar nisbatlarida ishlashni davom ettiring. Natyurmortdagi kenglik, fazoviy perspektivani ifodalash uchun birinchi Plandagi ranglar qarama-qarshiligini kuchaytirib, buyumlarni aniqroq tasvirlang, orqa planni yengillashtirib, baʼzi joylarini ochartirish mumkin. Shu yoʻl bilan kompozitsiyadagi fazoviy boʻshliqni ifodalanadi. Faqatgina buyumlarning tusiga emas, balki hajmi, shakli hamda uning materialini ham berish uchun diqqatingizni jalb qiling [10, B.689].

Maqolada fan doirasidagi mavzu aniq, tushunarli, asosli taʼriflar keltirilib, rangtasvir mashgʻulotlarida natyurmortni akvarel, guash boʻyogʻida grizayl texnikasida tasvirlash bosqichlari, ularga rang berish jarayonlari toʻgʻrisidagi fikrlar bilan boyitilgan. Rangtasvir fanining maqsad va vazifalari talabalarga tushunarli tarzda berilgan va tabiatdagi, real ijtimoiy borliqdagi mavjud ranglarni xis qilishi, undagi ranglarning jilosi qanchalik joʻshqin, sokin va ayni vaqtda yorqin, oʻzaro qarama-qarshiligini his etish va oʻziga xos uygʻunligini oʻrganishdan iboratligi tushunarli talqin etilgan. Asosiy maqsad qilib, amaldagi oʻquv dasturiga koʻra, oʻqish davomida talabalar, natyurmort, ranglavhalar ishlashi natijasida ancha mahoratga ega boʻlib, malakaviy bilimni oshirishga qaratilgan.

IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES.

1. Nurtaev U. “Rangshunoslik asoslari”. T.: ILM-ZIYo nashriyoti, 2008.
2. Sultanov X. Rangtasvir “Grizaylda rangtasvir ishlash” metodik qo‘llanma. T.: TDPU - 2014.
3. Makhkamova Saodat Bakhtiyarovna THE FORMATION OF VISUAL ARTS SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN PERFORMING SKETCH, COMPOSITION AND CREATIVE WORKS//European Journal of Arts. 2024.№1. URL: <https://ppublishing.org/archive/publication/894-the-formation-of-visual-arts-skills-of-schoolc>
4. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>
5. MAXKAMOVA, S. (2023). TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI BADIY TAXLIL QILISHDA RASSOM KAMOLIDDIN BEXZOD IJODIDAN FOYDALANISH MASALALARI. Journal of Culture and Art, 1(8), 107–114. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/767>
6. Makxkamova Saodat Baxtiyarovna. (2023). The Role and Significance of Composition in the Fine Arts in Forming the Professional Competence of Future Fine Arts Teachers. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 147–153. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3826>
7. Maxkamova Saodat Baxtiyarovna, (2022). PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC ANALYSIS OF LANDSCAPE WORK IN SCHOOL. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(03), 21–28. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-03-06>
8. Maxkamova S. B. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 222–230. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1017>
9. Nurtaev, U. N. (2022). Osnovy Iskusstvovedcheskoy Podgotovki Studentov Sredstami Natsionalnogo Iskusstva. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 8, 46-50
10. Nurtaev, U. N., & Makhkamova, S. B. (2016). Voprosy podgotovki studentov k godojestvenno tvorcheskoy deyatelnosti. Molodoy uchenyy, (7), 687-691.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz